

TA'LIM TASHKILOTLARIDA KONFLIKTLARNI HAL QILISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.

Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi I-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim tashkilotlarida uchraydigan konfliktlarning mazmun-mohiyati, ularni konstruktiv yo'l bilan hal qilishning zamonaviy modellari tahlil qilingan. Mediasiya, restorativ yondashuv, "win-win" (G'olib-g'olib) modeli, emotsional intellektga asoslangan yondashuv va raqamli texnologiyalar integratsiyasi ilmiy manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, ushbu modellarning ta'lim tizimida qo'llash mexanizmlari va samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik konflikt, mediasiya, restorativ yondashuv, win-win, emotsional intellekt, konflikt ta'lim sifati.*

Аннотация: *В статье анализируется сущность конфликтов в образовательных организациях, современные модели их конструктивного разрешения. На основе научных источников раскрываются медиация, восстановительный подход, модель «win-win», подход, основанный на эмоциональном интеллекте, и интеграция цифровых технологий. Обосновываются механизмы и эффективность применения данных моделей в системе образования.*

Ключевые слова: *педагогический конфликт, медиация, восстановительный подход, выигрыш-выигрыш, эмоциональный интеллект, качество конфликтного образования.*

Abstract: *This article analyzes the essence of conflicts in educational organizations, modern models of their constructive resolution. Mediation, restorative approach, "win-win" model, emotional intelligence-based approach and integration of digital technologies are revealed on the basis of scientific sources. Also, the mechanisms and effectiveness of the application of these models in the educational system are substantiated.*

Keywords: *pedagogical conflict, mediation, restorative approach, win-win, emotional intelligence, conflict education quality.*

Farovon hayot - mukammal tarbiyadan boshlanadi. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. „Hozirgi qaltis davrda

tarbiya mukammal bolishi uchun bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi» - deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Konflikt bu hayotimizda jadal o'sib borayotgan jarayoni hisoblanadi Ta'lim jarayoni ko'p qirrali tizim bo'lib, unda o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona va ma'muriyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turlicha bo'lib kelmoqda. Bu munosabatlar jarayonida ma'lum darajada ziddiyatlarning kelib chiqishi tabiiy hol aylanib bormoqda. Pedagogik konfliktologiyaning asosiy vazifasi – mojaro sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda sog'lom kommunikativ muhit yaratishdir. So'nggi yillarda ta'lim tashkilotlarida zamonaviy konfliktlarni boshqarish modellari keng tarqalib kelmoqda. Biz hozirgi vaqtda mana shu zamonaviy konfliktlarni boshqarish modellarini har bir ta'lim tashkilotlariga, bundan tashqari har bir korxona tashkilotlarga tadbiq etishimiz kerak. Chunki har bir korxona tashkilotlarda ziddiyatli holat konfliktlar yuzaga kelishi mumkin va yuzaga kelmoqda. Agar konflikt bo'lmasa har bir tashkilot korxonalar rivojlanishi yanada kuchayadi, o'sadi, rivojlanadi.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konfliktli vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan tog'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. Konflikt - o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvi. Konfliktning yechimini topish - konfliktli vaziyatni yo'qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to'g'ri yo'l bilan yechim topish yoki to'g'ri yo'lga solish bilim ko'nikmalari majmuidan iborat. Konflikt - bu tabiiy hodisa. Konflikt - oddiy hol. Chunki konflikt har birimizning turmush tarzimizga va tirikligimizga xos va hayotimizga tegishli bo'lgan holat. Ammo ko'pchilik insonlar ongida an'anaviy mavjud bolgan fikrga ko'ra, konflikt - bu oddiy holat emas, u ziddiyatli holat, undan o'zini muhofaza qilish kerak, undan o'zini uzoqroqda ushlash lozim yoki konfliktidan «qochish» kerak.

Ta'lim tashkilotida pedagogik jarayon ko'plab ijtimoiy subyektlar — o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona, ma'muriyat va rahbarlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir bilan belgilanadi. Bunday tizimning dinamik tabiati konfliktlarning muqarrarligini anglatadi. Konfliktlar to'g'ri boshqarilsa, ular rivojlanish, o'zgarish va innovatsiyalar uchun imkoniyatga aylanadi. Zamonaviy konfliktologiya ta'lim tashkilotlarida nizolarni oldini olish va hal qilish uchun bir qator ilmiy asoslangan modellardan foydalanishni taklif etadi. Bizda asosiy maqsad ta'lim tashkilotida konfliktlarni hal qilishning zamonaviy modellari, ularning ilmiy asoslari va amaliy qo'llanish samaradorligini o'rganishdan iborat.

Ta'lim tashkilotidagi konfliktlarning mohiyati.

Pedagogik konflikt odatda kommunikativ buzilish, psixologik nomuvofiqlik, tashkiliy kamchilik yoki rollar to‘qnashuvining natijasi sifatida yuzaga keladi.

O‘qituvchi–o‘quvchi, o‘quvchi–o‘quvchi, o‘qituvchi–ota-ona va o‘qituvchi–ma‘muriyat o‘rtasidagi ziddiyatlar eng ko‘p uchraydigan turlardir.

Zamonaviy yondashuvlarda konfliktni bartaraf etish emas, balki uni konstruktiv ravishda boshqarish tamoyili ustuvor hisoblanadi.

Konfliktlarni hal qilishning zamonaviy modellari.

Mediasiya modeli

Mediasiya – neytral vositachi yordamida tomonlar o‘rtasida muzokara olib borib, kelishuvga erishish jarayoni. Mediasiyani nizolarni hal qilishning eng demokratik va insonparvar mexanizmi sifatida ta’riflaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham “o‘quvchi mediatorlar” xizmatini joriy etish tajribalari mavjud. Mediasiya modeli o‘quvchilarni tinglash, muzokara olib borish va mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadi.

Restorativ (tuzatuvchi) yondashuv

Restorativ yondashuvning asoschisi Zehr mojaroning markaziga aybdorni emas, balki zarar ko‘rgan shaxsni qo‘yish kerakligini ta’kidlaydi. Ushbu modelda tomonlar zarar oqibatlari ustida ishlaydi, yarashuvga erishadi. “Doira suhbatlari”, “tuzatuvchi uchrashuvlar” ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Win–Win” (G‘olib–G‘olib) modeli

Thomas va Kilmann tomonidan ishlab chiqilgan integrativ model tomonlar manfaatiga asoslanadi. Mojaro jarayonida asosiy vazifa — har ikki tomon yutadigan yechim topishdir. Bu model o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi keskinlikni kamaytirishga yordam beradi.

Emotsional intellektga asoslangan model

Emotsional intellekt nazariyasi konfliktlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘z his-tuyg‘ularini idora qila olganida, o‘quvchilarning emotsiyalarini to‘g‘ri tushunganida nizolar keskinlashmaydi. Empatiya, faol tinglash, “men-xabarlar” texnikasi bu modelning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan model

Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi konflikt profilaktikasining yangi imkoniyatlarini yaratdi. Elektron kundaliklar, onlayn monitoring, raqamli kommunikatsiya vositalari o‘quvchi xatti-harakatlari haqida o‘z vaqtida ma’lumot beradi va nizolarni erta aniqlashga xizmat qiladi.

Mana shu konfliktlarni hal qilishning zamonaviy modellarini hozirgi kunda targ‘ib qilish har bir jarayondagi konfliktlarni oldini oladi. Biz pedagoglar bu zamonaviy modellarni ta’lim jarayoniga targ‘ib qilishimiz kerak, chunki har bir jarayonda konfliktlarni oldini

olgan bo‘lamiz. Ta‘lim jarayonidagi ziddiyatli holatlar bu ta‘limni o‘shida eng katta to‘siq bo‘ladi

Zamonaviy modellarning ta‘lim amaliyotida qo‘llanishi:

- Pedagogik muloqot sifatini oshirishga yordam beradi.
- O‘quvchi va talabalarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar shakllantiradi.
- Intizomning buzilishini oldini oladi.
- Ota-onalar bilan hamkorlik jarayoni yanada rivojlanadi.
- Sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi.

Shu sababdan ta‘lim tashkilotlariga zamonaviy konfliktologik modellarni ta‘lim jarayonida tizimli tadbiq etish eng asosiy va muhim holat hisoblanadi. Ushbu modellarning ilmiy asoslanganligi va pedagogik amaliyotdagi samarasi ta‘lim sifatini oshirishda, shaxslarning ijtimoiy kompetensiyasini va psixologik holatini rivojlantirish, konfliktologik madaniyatni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедова, Н., & Йўлдошева, С. (2021). Педагогик конфликтология. Тошкент: Тафаккур.
2. Jabborov, A. (2019). Maktabda kommunikatsiya va konfliktologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Jalolov, J. (2020). Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Deutsch, M. (1973). The Resolution of Conflict. Yale University Press.
5. Moore, C. (2014). The Mediation Process: Practical Strategies for Resolving Conflict. Jossey-Bass.
6. Zehr, H. (2015). The Little Book of Restorative Justice. Good Books.
7. Thomas, K., & Kilmann, R. (2008). Thomas–Kilmann Conflict Mode Instrument. XCS Press.
8. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam Books.
9. Rahmonqulova, M. (2022). Ta‘lim jarayonida konfliktlarni boshqarish texnologiyalari. Toshkent: Innovatsiya.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Ta‘lim tizimida ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish to‘g‘risida qaror. Toshkent.
11. XTV (2021). Maktabda mediasiya xizmatini tashkil etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent.